der Krieketspieler – kriket o'yinchisi
schlagen – to'pni irg'itmoq

der Torwächter – darvozabon
die Anzeigetafel – tablo (biror ma'lumotni yorug'lik va elektromagnit vositasida ko'rsatadigan lavha)
der Schiedsrichter – sudya, hakam

Ich begeisterte mich für sein Krieket zu spielen. – Men uning kriket o'ynashiga qoyil qolaman.

Der Schiedsrichter gab seinen Irrtum beim Schlagholzspiel zu. – Bosh hakam chillak o'yinidagi o'z xatosini tan oldi.

der Basketball -(e)s, *Basketbälle* – basketbol

der Basketball – basketbol to'pi
das Basketballspiel – basketbol o'yini
der Basketballspieler – basketbol o'yinchisi
der Korb – to'r, savat

das Korbbrett – shchit (basketbol o'yinida to'r o'rnatilgan taxta)
der Korbring – to'r o'rnatilgan halqa
werfen – otmoq

fangen – ilib olmoq
schießen – savatga tashlamoq
springen – sakramoq
decken – to‘smoq, pana qilmoq
blocken – o‘rab olmoq, qurshab olmoq

sprinen lassen – to‘pni yetkazib bermoq
einen Dunk spielen – sakrab otmoq, uloqtirmoq



Ich möchte ein Basketballwettspiel sehen. – Men basketbol musobaqasini tomosha qilmoqchiman.

der Baseball -(e)s, Baseballle – beysbol

der Baseball – beysbol to‘pi
das Spielfeld – o‘yin maydoni

die Keule – chillak
rutschen – dumalatmoq, g‘ildiratmoq

Beim Baseball spielen zwei Mannschaften. – Beysbolda ikki jamoa o‘ynaydi.

das Golf -s,- golf

der Golfball – golf to‘pi
das Golfspiel – golf o‘yini
der Golfspieler – golf o‘yinchisi
der Golfplatz – golf maydoni
die Aktion der Golfspiele – golf o‘yini harakati
vom Abschlag spielen – birinchi zarba bermoq

das Golfhandicap – gandikap (golf o‘yinida kuchsizroq tomonga yengillik, janda berib kuchlarni baravarlashtirish)
die Golfschläger – golf klyushkasi (uchi qayrilgan dastak)

Das Golfspiel ist ein interessantes Spiel. – Golf o‘yini qiziqarli o‘yin.

die Leichtathletik – yengil atletika

der Startblock – start moslamasi
das Diskuswerfen – disk uloqtirish
das Speerwerfen – nayza otish
das Rennen – yugurish

der Staffellauf – estafetali yugurish
der Hochsprung – balandlikka sakrash
der Weitsprung – uzunlikka sakrash

der Marathon – marafon yugurish
der Stabhochsprung – langar cho‘p
bilan sakrash

das Hammerwerfen – to‘qmoq
otish



Der Junge stählt seinen Willen durch die Leichtathletik. – Yigit o‘z
irodasini yengil atletika bilan chiniqtiradi.

die Schwerathletik – og‘ir atletika

das Boxen – boks

der Boxer – bokschi

der Sekundant – sekundant (boksda:
tomonlar vakili yoki yordamchisi)

der Ringrichter – sudya, hakam

der Kampfring – ring (boks may-
donchasi)

die Seile – kanat, arqon

der Gong – bong, zang

der Zeitnehmer – xronometrchi
(boks jarayonida ketgan vaqtini

sekundomer yordamida aniq
belgilaydigan odam)

der Boxhandschuh – boks qo‘lqopi

der Plattformball – boks uchun
mo‘ljallangan noksimon shar

der Sandsack – qum solingan xalta

der Doppelendball – kiydirma, ikki
qavatli to‘p

das Sprungseil – skakalka, sakra-
bodom (sakramachoq arg‘amchi)

Der junge Boxer besiegte alle seine Gegner. – Yosh bokschi o‘zining
barcha raqiblarini yengdi.

der Ringkampfsport -(e)s – kurash

der Überwurf – o‘zidan oshirib
tashlash

die Kampfbewertung – kurash fao-
liyatini baholash

der Fünfkampf – beshkurash

unbeendlich – chala

seitenständig – yonbosh

rechtschaffen – halol

**Von allen Arten des Ringes ist der französische Ringkampf der be-
kannteste.** – Barcha kurash turlari ichida eng mashhuri fransuzcha kurashdir.

das Turnen -s – gimnastika

der Salto – salto, (havoda) umbaloq oshish

der Sprung – tayanib sakrash

die rhythmische Gymnastik – badiiy gimnastika

das Bodentamen – erkin mashq

Der Arzt befreite das Mädchen vom Turnen. – Shifokor qizni gimnastika mashqlaridan ozod qildi.



der Kampfsport -(e)s – yakkama-yakka kurash

das Taekwondo – taekvondo

das Aikido – aykido

das Kendo – kendo

das Karate – karate

das Judo – dzyudo

das Kung-Fu – kun-fu

das Ringen – yunon-rom kurashi

der Freikampf – erkin kurash

der Sambo – sambo

Wann und wo findet man der Judowettkampf statt? – Dzyudo kurash musobaqasi qachon va qayerda bo'lib o'tadi?

die Technik der Kämpfe – kurash usuli

das Fallen – yiqilish, ag'darilish

der Griff – bosish

der Wurf – irg'itish, otish

das Fesseln – ikkala kuragini yerga tekizish, halol yiqitish

der Seitfußstoß – oyog'i bilan urish, tepish

der Stoß – zarba berish

der Angriff – yon biqiniga urish

der Block – qurshov

der Hieb – qulochkashlamasdan urish, quloch yoymasdan zarba berish

Ich bekam einen kräftigen Stoß in die Seite. – Men yon biqinimga kuchli zarba oldim.

der Schwimmsport -(e)s – suzish

das Schwimmbecken – basseyn, suzish havzasi

das Sprungbrett – trampolin (sak-

rashda balandroq ko'tarilishga yordam beradigan moslama)

die Schwimmart – suzish usuli, turi



das Brustschwimmen – brass usulida suzish (suzish usuli)

das Schmetterlingsschwimmen – baterflyay (suzish usuli)

das Rückenschwimmen – chalqanchasiga suzish

das Kraulen – krol (quloch otib suzish)

das Springen ins Wasser – suvga sakrash

der Fußsprung – oyoq bilan pastga sakrash

der Kopfsprung – bosh bilan sakrash

der Trumsprung – tramlindan sakrash

der Wasserball – suv polosi (suvda o'ynaladigan to'p o'yini)

Der Junge trainierte sich täglich im Rückenschwimmen. – Yigitcha suvda chalqanchasiga suzishni har kuni mashq qilardi.

der Segelsport -(e)s – yelkanli qayiq sporti

der Kompass – kompas

der Anker – langar

die Segeljacht – yaxta (kichikroq kema)

der Rettungsring – qutqarish boloni

die Schwimmweste – qutqaruv

nimchasi

Das Segel liegt noch vor Anker. – Yelkanli qayiq hali ham langar tashlab turadi.

der Wassersport -(e)s – suv sporti

das Bootsrennen – qayiqda suzish poygasi

das Rennboot – poyga qayig'i, poygachi qayiq

Was für Wassersport treiben Sie? – Siz qaysi suv sporti bilan shug'ullanasiz?

das Paddeln im Kanu – kanoeda eshkak eshish

rudern – eshkak eshmoq

das Wasserski – suv chang'isi

das Paddelboot – baydarka

Das Paddelboot rudert man mit einem Paddel. – Baydarkada ikki parakli eshkak bilan suziladi.

der Reitsport *-(e)s* – ot sporti

die Veranstaltung des Reitsports – ot sporti musobaqasi

das Pferderennen – otida sakrash

das Springreiten – sakrash musobaqasi

das Dressurreiten – otida chopish

die Rennbahn – otchopar



Zehntausende Zuschauer sahen sich diese interessante Veranstaltung des Reitsports. – O'n minglab tomoshabinlar hu ot sporti musobaqasini kuzatdilar.

der Angelsport *-(e)s* – baliq ovlash sporti

die Angel – qarmoq

der Angelhacken – qarmoq ilgagi

der Köder – xo'rak (qarmoqqa qo'yiladigan yemish)

der Köderhacken – bleska (baliq ovlash uchun qarmoqqa bog'langan yaltiroq baliqcha, plastinka)

die Angelrute – qarmoq dastagi

auswerfen – qarmoq tashlash

fangen – tutmoq

mit dem Netz fangen – to'r bilan ovlamoq

loslassen – qo'yib yubormoq, chiqarib yubormoq

ködern – qarmoqqa xo'rak qo'ymoq

anbeißen – qarmoqqa ilinmoq

Morgens angelt es sich gut. – Ertalab baliq yaxshi ilinadi.

der Skisport *-(e)s* – chang'i sporti

der Skiläufer – chang'ichi

der Ski – chang'i

die Skipiste – chang'i izi, chang'i yo'li

der Skilauf – chang'ida uchish

der Skiflug – chang'ida katta tramp-lindan sakrash

der Skisprung – chang'ida tramp-lindan sakrash

Ich habe mich mit meinem Freund verabredet, Ski zu laufen. – Men do'stim bilan chang'i uchishni kelishib oldim.

der Wintersport *-(e)s* – qishki sport

das Eisklettern – muz alpinizmi ko'tarilish sporti)

(baland muzli tog' cho'qqilariga **das Eislaufen** – konkida uchish

der Bobsport – bobsley (1. bir necha o‘rinli boshqariladigan sport chanasi
2. shunday chanada o‘tkaziladigan sport mashqi)

das Schneemobil – avtochana (qor-da yuradigan avtomobil)

das Schlittenfahren – chanada uchish

das Biathlon – biatlon (chang‘ida yugurish va yo‘l-yo‘lakay miltiq otish sporti)

der Slalom – slalom (chang‘ida tepalikdan tez tushish sporti)

die Lawine – ko‘chki (tog‘lardan ko‘chib tushadigan qor uyumi)



Er wetteiferte mit seinen Freund im Schlittschuhlaufen. – U o‘zining do‘sti bilan konkida yugurishda musobaqalashdi.



XVII. DAS LEBEN UND DIE TÄTIGKEIT DER MENSCHEN

1) die Gestalt
der Körper
der Kopf
das Haar
der Zopf
das Gesicht
die Stirn
das Auge
die Augenbraue
die Nase
der Mund
die Lippe
der Zahn
die Wange
das Ohr
der Bart
der Hals
die Kehle
die Brust
die Schulter
die Hand
der Ellbogen
der Finger
der Nagel
die Faust
der Rücken
die Seite
der Bein
der Fuß
die Zehe
der Muskel
das Skelett

die inneren Organe
2) die Geburt
der Atem
die Ernährung
der Schlaf
der Traum
das Aufwachen
die Krankheit
der Tod
das Schicksal
3) das Kind
die Jugend
der Junge
das Mädchen
der Mann
die Frau
das Alter
4) der Verwandte
die Generation
die Ehe
die Eltern
der Vater
die Mutter
der Sohn
die Tochter
der Bruder
die Schwester
der Großvater
die Großmutter
der Enkel
der Onkel
die Tante

5) die Kleidung
die Kinderkleidung
die Herrenkleidung
die Damenkleidung
die Accessoires
der Schmuck
das Make-up
die Maniküre
der Mantel
die Jacke
die Hose
das Hemd
das Kleid
der Rock
die Socke
der Strumpf
das Tuch
der Kragen
der Ärmel
die Tasche
der Gurt
der Knopf
die Nadel
der Faden
die Bürste
der Ring
die Mütze
der Hut
die Schuh
der Stiefel
6) der Beruf



1) die Gestalt -, -en – gavda, qomat

die gute Gestalt – sog' lom tana
die schlechte Gestalt – beo' xshov
tana

die aufrechte Gestalt – to'g'ri tana
die gebeugte Gestalt – egilgan tana
die krumme Gestalt – bukri tana



Sie ist schön von Gestalt. – Uning qomati kelishgan.

der Körper -s, - – tana

der Körperbau – tana tuzilishi
die Körperbeschädigung – tana shi-
kastlanishi, jarohati
die Körperbewegung – tana harakati
das Körperblut – vena qoni
die Körperdurchbildung – tana
mashqi
das Körpergewicht – tana og'irligi

die Körpergröße – qad, qomat
Körperkraft – tanaga oid, jismoniy
die Körperkraft – tana kuchi
körperlos – tanasiz
die Körperpflege – tana gigenasi
der Körperschlagader – aorta, sho-
tomir
der Körperteil – tana qismi

Die Frau passt das neue Kleid ihrer Körpergröße an. – Ayol yangi ko'yakni o'zining qomatiga moslamoqda.

der Kopf -(e)s, Köpfe – bosh, kalla

den Kopf schütteln – boshini qi-
mirlatmoq
das Kopfnicken – bosh silkitib (ir-
g'atib, chayqab) qilingan imo-ishora
das Kopfschütteln – bosh qimir-
latish

der Kopfträger – birinchi bo'yin
umurtqasi
den Kopf heben – boshni ko'tarmoq
von Kopf bis Füßen – boshdan
oyoqqacha

Sie kehte ihren Kopf an meine Schulter. – U boshini mening yelkam-
ga qo'ydi.

das Haar -(e)s, -e – soch

das graue Haar – oqargan soch
der Haaranatz – soch ildizi

der Haarausfall – soch to'kilishi
die Haarfarbe – soch rangi

die Haarflechte – soch o‘rimi
die Haarlocke – jingalak soch, zulf, gajak
haarlos – sochsiz
der Haarpfleger – sartarosh
das blonde Haar – och sariq soch
das helle dunkle Haar – qoramtir soch
das schwarze Haar – qora soch
das pechschwarze Haar – qop-qora soch
das rote Haar – qizg‘ish soch
das wirre Haar – paxmoq soch
das zerzauste Haar – taralmagan soch

das gutfrisierte Haar – yaxshi taralgan soch
das Zopfhaar – o‘rilgan soch
das glatte Haar – kal
das Stirnhaar – chyolka, peshana-gajak
die Haarfrisuren – soch turmagi
das krause Haar – qo‘ng‘iroq soch, fatila soch
das Haarband – soch bog‘ichi, turmagi



Die Frau strich dem Kind über die Haare. – Ayol bolaning sochini siladi.

der Zopf -(e)s, -Zöpfe – kokil

der falsche Zopf – yasama kokil
das Haar zu einem Zopf flechten – sochni o‘rib qo‘ymoq
zopfig – uzun kokilli
der Zopfmensch – sochi yaxshi o‘smagan (yarim kal) kishi
das Zopftum – qotib qolgan kokil
die Zopfzeit – yasama soch (parik) davri (XVIII asr ikkinchi yarmi)

Die Mutter flecht das Haar der Tochter zu einem Zopf. – Ona qizining sochini bitta qilib o‘rmoqda.

das Gesicht -(e)s, -er – yuz

das breite Gesicht – yapaloq yuz
das schmale Gesicht – cho‘ziq yuz
das feingeschnittene Gesicht – nozik yuz
das blaße Gesicht – rangsiz yuz
das sonnegebräunte Gesicht – oftobda qoraygan yuz
das magere Gesicht – so‘lg‘in yuz



das runzlige Gesicht – ajinli yuz
das runde Gesicht – yumaloq yuz
das längliche Gesicht – cho‘zinchoq yuz
das Gesicht abwenden – yuz o‘girmoq, yuzini teskariga burmoq
das traurige Gesicht aufsetzen – yuzi g‘amgin ko‘rinmoq
das nadere Gesicht aufsetzen – aftini o‘zgartirmoq

die Gesichtsknetkur – yuz masaji
die Gesichtsmaske – yuz niqobi
der Gesichtsausdruck – yuz ifodasi
die Porte – teri teshikchasi
das Grübchen – kuldurgich
die Gesichtszüge – yuz chiziqclari
die Falte – ajin
die Sommersprosse – sepkil

Das Mädchen verhüllte mit beiden Händen das Gesicht. – Qiz yuzini ikki qo‘li bilan pana qildi.

die Stirn -, -en – peshana

die breite Stirn – keng peshana
die hohe Stirn – baland peshana
die niedrige Stirn – past peshana
die schmale Stirn – tor peshana

die gewölbte Stirn – bo‘rtib chiqqan peshana
das Stirnhaar – ch Yolka, peshanagajak

Der Arbeiter wischte den Schweiß an der Stirn. – Ishchi peshanasidan terini artidi.

das Auge -s, -n – ko‘z

das graue Auge – kul rang ko‘z
das blaue Auge – ko‘k ko‘z
das schwarze Auge – qora ko‘z
das hellbraune Auge – och jigarrang ko‘z
das dunkelbraune Auge – to‘q jigarrang ko‘z
das Schielauge – g‘ilay ko‘z
die Schlitzaugen – qisiq ko‘z
das mandelförmige Auge – bodom-qovoq ko‘z
das lebhafte Auge – o‘ynoqi ko‘z

die Äugelei – bir-biriga qarash, ko‘z tashlash
äugeln – 1) ko‘z o‘ynatmoq 2) ko‘z suzmoq, ishva bilan qaramoq
äugen – 1) ko‘z ostiga olmoq 2) ko‘zdan kechirmoq
der Augenabstand – ko‘zlar orasidagi masofa
die Augenfarbe – ko‘z rangi
der Augenfehler – ko‘rish darajasi pastligi
die Augenkrankheit – ko‘z kasalligi

das **Augenlicht** – ko‘rish qobiliyati
das **Augenpaar** – juftko‘z
das **Oberlid** – yuqori qovoq
das **Unterland** – pastki qovoq
die **Wimpern** – kipriklar

die **Iris** – rangdor parda
die **Pupille** – qorachiq
das **Sehloch** – ko‘z qorachig‘i
der **Augapfel** – ko‘z soqqasi

Mir wurde es schwarz vor den Augen. – Ko‘zimning oldi qorong‘ilashdi.



die Augenbraue -, -n – qosh

die **buschige Augenbraue** – qalin qosh
die **schütterere Augenbraue** – siy-rak qosh
die **breite Augenbraue** – keng qosh
die **schmale Augenbraue** – ingichka qosh

die **gezeichnete Augenbraue** – qalam qosh
die **Augenbrauen zusammenziehen** – qoshlarni chimirmoq

(Beim Friseur:) Bitte, ziehen Sie mir die Augenbrauen nach! – (Sartaroshxonada:) Marhamat, qoshimni bo‘yab qo‘ying!

die Nase -, -n – burun

die **stumpfe Nase** – puchuq burun
die **schmale Nase** – qirra burun
die **gerade gebogene Nase** – qirg‘iy burun
die **Hakennase** – burgut burun
die **feingeschnittene Nase** – nozik burun
die **kurze Nase** – qisqa burun
die **lange Nase** – uzun burun
die **platte Nase** – yopishgan burun
näseln – dimog‘ida gapirmoq, man-qalanib gapirmoq

das **Nasematmen** – burundan nafas olish
das **Nasenbluten** – burundan qon ketishi
die **Nasbremse** – burun xalqasi
der **Nasenlaut** – burun tovushi
riechen – hidlamoq, hidni sezmoq
schnuppern – hidlab ko‘rmoq, burunga tortmoq
niesen – aksa urmoq, chuchkirmoq

Das Mädchen roch die Rose, die man ihr geschenkt hatte. – Qiz sovg'a qilingan gulni hidlab ko'rди.

der Mund -(e)s, Mänder – og'iz



das Mundatmen – og'izdan nafas olish

mundfaul – kangap, indamas

der Mundgeruch – og'iz hidi

mündlich – og'zaki

das Mund spülen – og'iz chayqash

das Mundtuch – salfetka, ro'molcha

der Mundvoll – bo'lak, qultum, to'g'ram, tishlam

der große Mund – katta og'iz

der kleine Mund – kichik og'iz

den Mund aufmachen – og'izni ochmoq

den Mund zumachen – og'izni yopmoq

beißen – tishlamoq

kauen – chaynamoq

zähnen – tishlamoq

lutschen – emmoq, shimmoq, so'rmoq

Er ersperrte vor Erstaunen Mund auf. – Hayratdan uning og'zi ochilib qoldi.

die Lippe -, -n – lab

die volle Lippe – qalin lab

die dicke Lippe – yupqa lab

die dünne Lippe – nozik lab

die rosrote Lippe – och qizil lab

die bleiche Lippe – rangsiz lab

die blaße Lippe – rangi o'chgan, rangpar lab

die aufgesprungene Lippe – yorilib ketgan lab

die Oberlippe – yuqorigi lab

die Unterlippe – pastki lab

Sie biß sich auf die Lippen. – U labini tishlab qoldi.

der Zahn -(e)s, Zähne – tish

der gleichmäßiger Zahn – tekis tish

der Milchzahn – sut tishi

der bleibende Zahn – doimiy tish

der Weisheitszahn – aql tish

der Zahnausfall – tish tushishi

der Augenzahn – so'yoq (qoziq) tish

der Wolfzahn – bo'ri (qiyshiq) tish

der Schneidezahn – kesuvchi tish
die Krone – qoplama tish
der Zahnfleisch – milk
der Backzahn – ildizli tish
das Zahnbein – dentin
die Zahnhöhle – tish kovagi
das Zahnfach – alveola (jag' suyaklarida tish ildizi o'rtnashgan joy)
der Zahnhals – tish bo'g'zi

die Zahnkrone – tishning milkdan chiqib turgan qismi
der Zahnlaut – tish tovushi
zahnlos – tishsiz
das Zahnmark – tish eti
der Zahnschmelz – tish emali
der Zahnschmerz – tish kasalligi
der Zahnstumpf – tish ildizi



Der Kranke hat die Zahnschmerzen erlitten. – Bemor tish og'rig'iga chidash kerak.

die Wange -, -n – yonoq, luj, yuz

die rote Wange – qizil yuz, lola yuz
die eingefallene Wange – ichiga kirgan yonoq
die runde Wange – dumaloq yonoq
die volle Wange – to'la yonoq

Der Junge küsste ihr die Wange. – Yigit uning yonog'idan o'pdi.

das Ohr -(e)s, -en – quloq

das kleine Ohr – kichkina quloq
das große Ohr – katta quloq
das abstehende Ohr – shalpang quloq
das anliegende Ohr – yopishgan quloq
das Ohrensausen – quloqlar shang'illashi
das Ohrläppchen – solinchak
die Ohrmuschel – quloq chanog'i (suprasi)
das Ohrloch – quloq teshigi
die Ohrspeicheldrüse – quloq yon bezlari
die Ohrtrompete – evstaxiyeviy naychasi (quloq bo'shlig'i bilan burun-tomoq bo'shlig'i o'rtasidagi tutash naycha)
hören – eshitmoq
schwerhörig – eshitishi og'ir
taub – kar
horchen – quloq solmoq
lauschen – bildirmay (sezdirmay) quloq solmoq

Er ist auf beiden Ohren taub. – Uning ikki qulog'i kar.

der Bart -(e)s, Bärte – soqol

barten – qirqmoq, tarashlamoq
(soch-soqolni)

das Barthaar – soch-soqol

bärtig – soqolli

die Bartkotelette – bakenbarda,
chekka soqol

der Bartling – soqolli odam

der Backenbart – chekka soqol

der Schnurrbart – mo‘ylov

der Vollbart – sersoqol odam



Er trägt einen Schnurbart. – Uning mo‘ylovi bor.

der Hals -es, Häse – bo‘yin, tomoq

der kurze Hals – kalta bo‘yin

der lange Hals – uzun bo‘yin

die Halsader – ko‘ktomir (bosh va
yuzdan yurakka boruvchi qon tomir)

die Halsmandeln – tomoq bezlari

der Halsmark – orqa miyaning

bo‘yin qismi

der Halsmuskel – bo‘yin muskuli

die Halsrippe – bo‘yin qovurg‘asi

die Halsschlagader – uyqu arte-
riyasi

Tut Ihnen der Hals weh? – Tomog‘ingiz og‘riyaptimi?

die Kehle -, -n – tomoq, bo‘g‘iz

kehlig – hiqildoqqa, bo‘g‘izga oid

der Kehlkopf – hiqildoq, bo‘g‘iz

der Kehlkopflaut – til orqa tovushi

der Kehlkopfverschluß – tomoq
xuruji, yo‘tal

der Kehllaut – bo‘g‘iz tovushi

kehlstimmig – hiqildoqqa, bo‘g‘izga
oid

Vor Angst blieben ihr die Worte in der Kehle stecken. – Qo‘rqqanidan
uning gapi bo‘g‘izida qoldi.

die Brust -, Brüste – ko‘krak

Brust an Brust – yelkama-yelka

das Brustbein – ko‘krak suyagi

die Brustdrüse – ko‘krak suti bezi

die innere Brustdrüse – buqoq bezi

das Brustfell – plevra, o'pka pardasi
das Brustkind – emizikli bola
die Brustmuskeln – ko'krak muskuli

die Bruststimme – ichdan (ko'k-rakdan) chiqariladigan to'la ovoz
die Brustwarze – emchak uchi

Ich atme mit voller Brust. – Men to'liq ko'kragimdan nafas olayman.



die Schulter -, *-n* – yelka

die Schulterbewegung – yelka harakati
das Schultergelenk – yelka bo'g'imi

der Schultergürtel – yelka qismi
die Schulterhöhle – qo'losti chuquri
schultern – yelkaga olmoq

Er schüttelte mich lange an den Schultern. – U uzoq vaqt mening yelkamni silkitdi.

die Hand -, *Hände* – qo'l

die schmale Hand – ingichka qo'l
die breite Hand – yo'g'on qo'l
die Mittelhand – panja o'zagi
die Handrücken – qo'lning orqa tomoni
durch Hand aufgeben – qo'l ko'tarmoq
der Handballen – qo'lning eti
die Handbewegung – qo'l harakati
das Handklatschen – qarsak
das anhaltende Handklatschen – davomli qarsaklar
das zerstreute Handklatschen – yakkam-dukkam qarsaklar

die Handfläche – kaft
die äußere Handfläche – qo'lning orqa tomoni
das Handgelenk – bilak
das Handgemenge – qo'l jangi
die Handlinie – kaft chiziq-lari
das Handposter – qo'l
die Handschleife – qo'lning oshiq-moshig'i
die Handschrift – 1) imzo 2) qo'l-yozma
der Linkhand – chapaqay
die Handvoll – hovuch, siqim
das Handwerk – qo'l mehnati

In der Schule heben die Kinder die Hand, wenn sie etwas sagen wollen. – Maktabda bolalar, agar ular bir narsa demoqchi bo'lsalar, qo'llarini ko'taradilar.

der Ellbogen -s, - – tirsak

sich auf die Ellbogen stützen – tirsakka suyanmoq, yonboshlamoq
die Ellbogenfreiheit – erkin harakat
das Ellbogengelenk – tirsak
die Ellbogenlehne – tirsak qo'ygich (stulga oid)



der Ellbogenschützer – tirsakband (issiq tutish yoki zarbdan saqlash uchun tirsakka bog'lanadigan kiyim, narsa)

Sie stieß mich mit dem Ellbogen. – U meni tirsagi bilan turtidi.

der Finger -s, – – barmaq

der Daumen – boshmaldoq, bosh barmaq
der Zeigefinger – ko'rsatkich barmaq
der Mittelfinger – o'rta barmaq
der Ringfinger – nomsiz barmaq
der kleine Finger – jimjiloq, kichik barmaq
der Fingerabdruck – barmaq izi
das Fingerabdruckverfahren – daktiloskopiya (barmaq izlariga qarab shaxsni aniqlash)
fingerdick – barmaq qalinlikdagi
die Fingerelei – barmoqlarning notinch harakati

fingerfertig – mohir, chaqqon
das Fingerglied – barmaq suyagi
der Fingerhut – angishvona, angishona
die Fingerkuppe – barmoqning uchi
alle fingerlang – damba-dam, tez-tez
fingerlos – barmoqsiz
der Fingernagel – barmaq tirnog'i
der Fingerzeig – belgi, barmaq ishorasi
der Schwurfinger – o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'i
fingieren – mug'ombirlik qilmoq

Ich habe mich in den Finger geschnitten. – Men barmog'imni kesib oldim.

der Nagel -s, *Nagel* – tirnoq

der harte Nagel – qattiq tirnoq
der weiche Nagel – sinuvchan tirnoq

das Nagelbeißen – tirnoq chaynash
das Nagelbett – timoqning o'rni
der Nagelbohler – tirnoq parmasi

die Nagelkuppe – timoq uchi
der Nagellack – timoq bo'yog'i

die Nagelpflege – manukyur (timoq parvarishi)

Ich brauche eine Nagelfeile. – Menga timoq egovcha kerak.

die Faust -, *Fäuste* – musht

das *Fäustchen* – kichkina musht
faustdick – musht qalinligi
faustgroß – musht kattaligi

der *Fausthandschuh* – qo'lqop
der *Faustkampf* – boks
die *Faustsäge* – dastarra, qo'larra

Er schlägt mit der Faust auf den Tisch. – U stolni mushti bilan urdi.

der Rücken -s, -- orqa

das Rückenmerk – orqa miya
der Rückenwirbel – orqa umurtqa

rücklinge – orqadagi, orqa

Entschuldigen Sie, dass ich Ihnen den Rücken zukehre. – Kechirasiz, men sizning orqangizda o'tirdim.

der Bein -(e)s, -e – oyoq, pocha

O-beinig – qiyshiq oyoq
X-beinig – tarvaqaylagan, kerilgan
oyoq
der Rist – do'ngsa, oyoq yuzining
do'ng joyi

der *Knöchel* – to'piq, to'piq suyagi
die *Ferse* – tovon

Der Bein besteht aus drei Teilen: dem Oberschenkel, dem Unterschenkel und dem Fuß. – Oyoq uch qismdan tashkil topgan: son, boldir va oyoq kafti.

Das Bein ist mir eingeschlafen. – Oyog'im uyushib qoldi.



der Fuß *-es*, *Füße* – oyoq

die Fußsohle – oyoq kafti

der Fußrücken – oyoq oshiq-mo-
shig'i

der Fußbreit – qadam

füßeln – mayda qadam tashlamoq,
bedana yurish qilmoq, pildirab ket-
moq

füßen – jo'nab qolmoq, yo'l olmoq

am Fußende – oyoq uchida (yotoq
joy misolida)

der Fußball – tiz cho'kish

der Fußlappen – poytava



Das Mädchen hat schlanke Füße. – Qizchanning oyoqlari nozik.

die Zehe *-n* – oyoq barmog'i

die große Zehe – oyoqning katta
barmog'i

die kleine Zehe – oyoqning kichik
barmog'i

der Zehennagel – barmoq tirnog'i

auf den Zehen gehen – oyoq uchida
yurmoq

die Zehen stellen – oyoq barmoqla-
rida tik turmoq

das Zehengelenk – oyoq barmoq-
larining bo'g'imi

das Zehenglied – barmoq suyagi

Mir tut die große Zehe weh. – Mening bosh barmog'im og'riyapti.

Es fror ihn an den Zehen. – Uning oyoqlarining barmoqlari sovqotdi.

der Muskel *-s, -n* – mushak, muskul

der Stirnmuskel – peshana (mang-
lay) muskuli

der Zwischenrippenmuskel – qo-
vurg'alar orasidagi mushak

der Bizeps – bitseps (ikki boshli
muskul, yelka bilan tirsakni
harakatlantiruvchi mushak)

der Brustmuskel – ko'krak mushagi

der Deltamuskel – deltasimon mu-
shak

der Kapuzenmuskel – trapetsiyasi-
mon mushak

der Rückenmuskel – orqa mushak

die Bauchmuskeln – qorin muskul-
lari

der Gesäßmuskel – dumba muskuli

der Kniesehenstrang – tizza payi

die Oberschenkelmuskeln – to'rt
boshli mushaklar

die Muskelanstrengung – mushak-larning tortilishi

die Muskelfaser – muskul paylari

das Muskelgewebe – mushak to'qimasi

die Muskelzusammenziehung – mushaklar qisqarishi

Mein Rückenmuskel strengt sich sehr stark. – Mening orqa mushaklarim juda kuchli tortishayapti.



das Skelett *-(e)s, -e* – skelet

der Knochen – suyak

das Schlüsselbein – o'mrov, o'mrov suyagi

das Schulterblatt – kurak, kurak suyagi

der Schädel – bosh suyagi

der Kieferknochen – pastki (ostki) jag'

das Brustbein – ko'krak suyagi

die Rippe – qovurg'a

der Oberarmknochen – yelka suyagi

der Brustkorb – ko'krak qafasi

die Elle – tirsak suyagi

der Mittelhandknochen – panja o'zagi

die Speiche – bilak suyagi

das Becken – tos suyagi, dumg'aza suyagi

der Oberschenkelknochen – son suyagi

die Kniescheibe – tizza ko'zi, tizza kosasi

das Wadenbein – kichik boldir suyagi

das Schienbein – katta boldir suyagi

der Mittelfußknochen – oyoq kaf-tidagi suyak

das Steißbein – dum suyagi, dumg'aza

der Knorpel – kemirchak, tog'ay

die Sehne – pay, chandir

das Sehnenband – pay, paycha

die Wirbelsäule – umurtqa

die Halswirbel – bo'yin umurtqasi

die Brustwirbel – ko'krak umurtqasi

die Lendenwirbel – bel umurtqasi

Das ist das reinste Sklett. – U quruq suyak bo'lib qolibdi.

die inneren Organe – ichki organlar

die Schilddrüse – qalqonsimon bez

die Luftröhre – traxea (nafas olish yo'llari, bo'g'iz)

die Lunge – o'pka

das Herz – yurak

die Leber – jigar

der Magen – oshqozon, me'da

der Zwölffingerdarm – o'nikkibar-
moq ichak

die Milz – qorajigar, taloq

die Niere – buyrak

die Bauchspeicheldrüse – oshqozon
osti bezi, me'da ostidagi bez

der Dünndarm – ingichka ichak

der Dickdarm – yo'g'on ichak

der Blinddarm – ko'richak



Die Ärztin horchte das Herz eines Krankens ab. – Shifokor ayol be-
morning yuragini quloq solib eshitib ko'rdi.

2) die Geburt -, -en – tug'ilish

die Geburtenanzahl – tug'ilish soni

die Gehurtenbeihilfe – tug'ruqqa
yordam

die Geburtenhäufigkeit – tug'ilish
miqdori

die Geburtenziffer – tug'ilish soni

der Geburtenrückgang – tug'ilish-
ning kamayishi

der Geburtenüber – tug'ilishning
o'shishi

die Geburtzunahme – tug'ilishning
ortishi

geburtiger Karschier – asl qarshilik,
kindik qoni to'kilgan joy – Qarshi

die Geburtenanzeige – tug'ilishni
qayd qilish

das Geburthaus – tug'ruqxona

der Geburtshelfer – akusher (ho-
miladorlarga, tug'adiganlar va tuq-
qan xotinlarga tibbiy yordam ko'rsa-
tuvchi shifokor)

die Geburtshelferin – akusherka
(homiladorlarga, tug'adiganlar va
tuqqan xotinlarga tibbiy yordam
ko'rsatuvchi shifokor ayol)

der Geburtstag – tug'ilgan kun

das Geburtsdatum – tug'ilgan vaqti

das Geburtsjahr – tug'ilgan yili

der Geburtsort – tug'ilgan joy

das Geburtsland – kindik qoni to'-
kilgan mamlakat

Heute begehen wir den 50. Geburtstag unseres Vaters. – Bugun biz
otamizning 50 yoshga to'lishini nishonlaymiz.

der Atem -s, – nafas

die Atemstörung – nafas olishning
buzilishi

der Atemstoß – nafas chiqarish

die Atemübung – nafas olish mashqi

der Atemweg – nafas yo'li

das Atemzentrum – nafas olish marka-
zi

der Atemzug – nafas olish

Ich bin ganz außer Atem. – Men butunlay halloslab qoldim.

die Ernährung -, -en – ovqatlanish

die Ernährungsregel – ovqatlanish qoidasi

die Ernährungsstörung – ovqatlanish vaqtining buzilishi

die Ernährungsweise – ovqatlanish tartibi

der Ernährungszustand – semizlik, to'ralik



Mein Ernährungsreime ist zerstört. – Mening ovqatlanish rejimim buzildi.

der Schlaf -(e)s, – uyqu

den festen Schlaf haben – qattiq uyquga ketmoq

den leisen Schlaf haben – sergak uxlamog

die Schlafzeit – uyqu vaqti

die Schlafentziehung – uyqusizlik

der Schläfer – uyquchi

schlaflos – uyqusiz

schlaftrunken – uxlayverib solqigan (shishgan)

der Halbschlaf – yarim uyqu, chala uyqu

die Schlafkrankheit – uyqu kasali

das Schlaflied – alla

das Schlafbedürfnis – uyqusirash

das Schläfchen – mizg'ish

schläfrig – uyquga oid, uyqudagi

schlafwandeln – uyqu kasaliga duchor bo'lmoq

der Schlafwandler – lunatik, oyparast (uyqusida uyg'oqdek yuraveradigan odam)

Endlich erwachte er aus dem Schlaf. – U nihoyat uyqudan uyg'ondi.

der Traum -(e)s, *Träume* – tush

der wache Traum – o'ngda (tushda emas), haqiqat

das Traumbild – tush ko'rish

das Traumbuch – tush ta'biri kitobi

der Traumdeuter – tush sharhlovchisi

der Traumzustand – tushning holati

den Traum haben – tush ko'rmoq

den Traum deuten – tushni sharhlamoq

aus dem Traum erwachen – tushdan uyg'onmoq

im Traum sprechen – tushda gapirmoq

Ich bin die ganze Stadt auf das Suchen nach dem Traumbuch abgelaufen. – Men tush ta'biri kitobini qidirib butun shaharni aylanib chiqdim.

das Aufwachen -s, - – uyg'onish



aufwachen – uyg'onmoq

vom Schläfe aufwachen – uyqudan uyg'onmoq

ohne aufzuwachen – dong qotib uxlamoq

Ich wachte beim Geräusch auf. – Men shovqindan uyg'onib ketdim.

die Krankheit -, -en – kasallik

der Kranke – kasal

das Fieber – isitma, harorat

der Kopfschmerz – bosh og'rig'i

das Nasenbluten – burundan qon ketishi

das Niesen – aksirish

die Grippe – grip

das Asthma – astma

der Krampf – spazma, siqilish

die Übelkeit – ko'ngil aynishi

die Windpocke – suvchechak

der Hautausschlag – toshma, is-siqlik

die Migräne – migren (vaqti-vaqti bilan tutadigan qattiq bosh og'rig'i)

der Schlaganfall – insult (bosh miyaga qon qo'yilishi)

die ansteckende Krankheit – yuqumli kasallik

die akute Krankheit – og'ir (o'tkir) kasallik

die englische Krankheit – raxit, shirzarda, mechkay (yosh bolalar kasalligi)

die hartnäckige Krankheit – qon-ga singib ketgan, tuzalmas, dardi bedavo kasallik

die Geschlechtskrankheit – tanosil kasalligi

die Geisteskrankheit – ruhiy kasallik

die Hautkrankheit – teri kasalligi

die Strahlkrankheit – nur kasalligi (radioaktiv nur ta'sirida yuzaga keladigan kasallik)

die Seekrankheit – dengiz kasalligi (dengiz to'lqinida bosh aylanishi, ko'ngil aynishi)

die Berufskrankheit – kasb kasalligi

das verschleppte Leiden – uzoqqa cho'zilgan kasallik

das Leberleiden – jigar kasalligi

die Zuckerkrankheit – qandli dia-bet

die Hals-, Nasen- und Ohren-krankheit – tomoq, burun va quloq kasalligi

die hartnäckige Krankheit – surunkali kasallik
der Krankheitsablauf – kasallikning kechishi
die Krankheitsausbildung – kasallikning avj olishi
der Krankheitsausgang – kasallikning natijasi, oqibati
die Krankheitsbekämpfung – kasallikka qarshi kurash
der Krankheitsbericht – kasallik tarixi
der Krankheitserreger – kasallik qo'zg'atuvchi, omil, sabab
die Krankheitserscheinung – kasallikning ko'rinishi, paydo bo'lishi
die Krankheitshäufigkeit – kasallanish, kasallik miqdori
der Krankheitsheuchler – simulant, o'zini kasalga soladigan kishi
der Krankheitskeim – kasal qo'zg'atuvchi holat
die Krankheitssymptome – kasallik alomati
das Krankheitszeichen – kasallik belgisi
der Krankheitsübertrager – kasallik tashuvchi
die Krankheitsursache – kasallik sababi
die Krankheitsverhütung – profilaktika (kasallikning oldini olish tadbiri)
der Zustand – ahvol
die Diagnose bestimmen – tashxisni

aniqlamoq
die Erkältung – shamollash
der Husten – yo'tal
der Schnupfen – tumov
konsultieren – maslahat bermoq
heilen – davolamoq
die Heilung – sog'ayish
der Blutdruck – qon bosimi
die Allergie – allergik (organizmda yot modda, mikrobyoki ularning mahsul'i tufayli yuzaga keladigan, organizm reaksiyasining keskin susayishi yoki kuchayishidan iborat kasallik)
der Mumps – tepki (bolalar kasalligi)
das Ekzem – ekzema, chilla yara
die Virus – virus (yuqumli kasallikni qo'zg'atuvchi, yuqtiruvchi mikroorganizm)
die Infektion – infeksiya (kasallik tarqatuvchi bakteriyaning, virusning odam organizmiga tushishi, kasallikning yuqishi)
die Verköhlung – titrash, qaltirash
der Herzeninfarkt – yurak xuruji
der Magenschmerz – oshqozon kasalligi
die Epilepsie – epilepsiya (tutqanoq, quyonchiq)
sich übergeben – qayt qilish kasalligiga yo'liqmoq
in Ohnmacht fallen – hushidan ketmoq, behush bo'lib qolmoq
die Masern – qizamiq



dev Heuschnupfen – isitma, bezgak

Dieser Mann hat eine schwere Krankheit durchgemacht. – Bu odam og'ir kasallikni boshidan kechirdi.



der Tod *-(e)s, -o'lim*

die Todesahnung – o'limni oldindan sezish

das Todesdatum – o'lim vaqti

die Todesgefahr – o'lim xavfi

der Todeskampf – jon talashish

die Todesnot – o'lim (jon) talvasasi

der Todestag – o'lim kuni

die Todesursache – o'lim sababi

Wir sind über den Tod unseres Onkels sehr betrübt. – Biz amakimizning o'limidan juda g'amga botganmiz.

das Schicksal *-s, -e – taqdir*

der Schicksalsfrage – taqdir masalasi

der Schicksalsschlag – taqdir zarbasi

die Schicksalsfügung – taqdir taqozasi

der Schicksalskampf – taqdir uchun kurash

schicksalsschwanger – biror bir oqibatga olib kelishi mumkin bo'lgan

schicksalschwer – taqdir dagi, peshanada yozilgani

die Schicksalswende – taqdir dagi o'zgarish

schicksalsvoll – taqdirga to'la

das Lebensschicksal – hayot taqdiri

Er fordert das Schicksal heraus. – U taqirdan noliydi.

3) das Kind *-(e)s, -er – bola*

das Kindbett – bola tug'ish, ko'z yorish

die Kindbetterin – yaqinda tug'adigan xotin yoki tuqqan xotin

die Kinderarbeit – bolalar mehnati

die Kinderbetreuung – bolalar ha-

qida g'amxo'rlik, jonkuyarlik

die Kinderbetreuungsstätte – bolalarga g'amxo'rlik maskani

die Kinderei – bolalik, go'daklik

das Kinderalter – bolalik, go'daklik

das Kinderheim – bolalar uyi

das Kinderspiel – bolalar o‘yini
das Kinderspielzeug – bolalar o‘yincho‘g‘i
der Kindertag – bolalar kuni
der Kinderzahn – sut tishi
das Kinderkind – nabira, o‘g‘ilning bolasi
Kind und Kegel – bola-chaqa

kinderlieb – bolajon
kindhaft – bolalarga xos
kindisch – bolalarcha (jiddiy emas)
die Kindheit – bolalik
von Kindheit an – bolaligidanoq
kinderlos – bolasiz
die Kinderlosigkeit – bolasizlik



Er machte einige Bemerkungen über die Kinderarbeit. – U bolalar mehnati haqida bir necha mulohazalar bildirdi.

Die Erinnerungen an meine Kindheit sind mit einem Dorf verbunden.
– Mening bolaligim haqidagi xotiralarim qishloq bilan bog‘liq.

die Jugend -, – yoshlik

die Jugendbewegung – yoshlar harakati
die Jugendziehung – yoshlar tarbiyasi
das Jugendforum – yoshlar forumi
die Jugendjahre – yoshlik yillari
die Jugendliteratur – yoshlar adabiyoti

die Jugendorganisation – yoshlar tashkiloti
die Jugendzeitung – yoshlar gazetasi
das Jugendzentrum – yoshlar markazi

Ich habe die Jugendzeitung «Turkiston» abonniert. – Men yoshlar gazetasi «Turkiston»ga obuna bo‘ldim.

der Junge -n, -n – o‘spirin

der Jünger – o‘quvchi
die Jüngerin – o‘quvchi qiz
die Jüngerschaft – o‘quvchilik yillari
die Jungfer – o‘spirin qiz

das Jungfernkind – nikohsiz tug‘ilgan bola
das Jungfernkloster – ayollar cherkovi
der Jungferstand – qizlik holati

die Jungfrau – yosh xonim
der Junggeselle – bo'yoq, uylan-
magan yigit

die Junggesellin – bo'yoq, tur-
mushga chiqmagan qiz

Der Junge neckte ein kleines Mädchen. – Bola kichkina qizchaning
jig'iga tegdi.



das Mädchen -s, - – qiz bola

die Mädchenerziehung – qiz bola
tarbiyasi

die Mädchenschule – qizlar mak-
tabi

das Mädchengymnasium – qiz
bolalar gimnaziyasi

die Schulmädchen – maktab qizlari

der Mädchensname – qizlik davri-
dagi familiyasi

Das Mädchen hat sehr an ihrem Großvater gehangen. – Qiz bobosiga
juda o'rganib qolgan edi.

der Mann -(e)s, Männer – erkak kishi

männlich – mujskoy (erkaklarga
mansub)

der junge Mann – yosh erkak kishi

der alte Mann – qariya

der starke Mann – botir, dovyurak,
jasur

der greise Mann – juda ham keksa
(qari) kishi

der Mannsname – erkaklar ismi

die Mannspflicht – erkaklik burchi

Der alte Mann schalt auf die lärmenden Kinder. – Qariya to'polon
qilayotgan bolalarni koyidi.

die Frau -, -en – ayol kishi

die Fraubase – g'iybatchi (gap ta-
shuvchi) ayol

der Frauenarzt – ginekolog-shifo-
kor

die alte Frau – qari xotin, kampir

die Frauenheilkunde – ginekolo-
giya

die Frauenarbeit – ayollar mehnati

der Frauentag – xotin-qizlar kuni
die Frauenzeitschrift – xotin-qizlar
jurnali

das Fräulein – xonim, nozikoyim,
oyimtilla (og‘zaki nutqda)

Die Frau reibt das Gesicht mit Creme ein. – Ayol yuziga krem surtib
singdirmoqda.



das Alter -s, - - yosh

der Alte – keksa kishi, chol
die Alte – qari xotin, kampir
älteln – qarimoq, qariy boshlamoq
altern – qaritmoq, keksa ko‘rsatmoq
das Altern – qarish, keksayish
der Altersabstand – yoshlar o‘rta-
sidagi farq
die Altersangabe – yosh ko‘rsatkichi
der Altersbrand – keksalarcha, qar-
rilarcha

die Altersfolge – kattalik, ulug‘lik
der Altersgenosse – tengdosh, teng-
qur
die Altersgrenze – chegaralangan
yosh. yosh chegarasi
das Altersheim – qariyalar uyi
die Alterspension – qarilik nafaqasi

Diese Alte lebt schon seit Jahren von ihrer Alterspension. – Bu kam-
pir bir necha yillardan beri o‘z qarilik nafaqasiga yashaydi.

4) der Verwandte -n, -n – qarindosh

der nahe Verwandter – yaqin qa-
rindosh
der entfernte Verwandter – uzoq
qarindosh
die Verwandtenehe – qarindosh
urug‘chilik
die Verwandtin – qarindosh xotin-
qiz

die Verwandtschaft – qarindoshlik,
qon-qardoshlik
**die Verwandtschaftsbezeich-
nung** – qarindoshlikning belgisi
der Verwandtschaftsgrad – qon-
qardoshlik darajasi
das Verwandtschaftsverhältnis –
qon-qardoshlik munosabati

Er stellte mir seine Verwandten vor. – U menga o‘zining qarindoshla-
rini tanishtirdi.

die Generation -, -en – avlod

von Generation zu Generation – avloddan-avlodga

generationenlang – avlodlar davomiyligi

der Generationsvorgang – avlodlar davom etish jarayoni

der Generationswechsel – avlodlar almashinuvi

der Generationsvertrag – avlodlar o'rtasidagi shartnoma, bitim

der Generationskonflikt – avlodlar o'rtasidagi nizo, mojaro



Die Bildung wird Maßnahmen für die Verbesserung der Erziehung der heranwachsenden Generation verwirklicht. – Ta'lim o'sib kelayotgan (yosh) avlodning tarbiyasini yaxshilash uchun tadbirlarni amalga oshiradi.

die Ehe -, -n – nikoh

das Eheaufgebot – er-xotin deb e'lon qilish

die Eheaufhebung – nikohni bekor qilinishi

das Eheband – er-xotinlik rishtasi

die Ehebescheinigung – nikoh to'g'risidagi guvohnoma

das Ehebett – nikoh to'shagi

der Ehebruch – er-xotinlik ishonchining buzilishi

die Ehegatten – er-xotinlik juftligi

die Ehefrau – xotin

die Ehegattin – rafiqqa

der Ehefriede – nikoh roziligi

der Ehegatte – er, kuyov

das Ehegesetz – nikoh to'g'risidagi qonun

der Ehepakt – er-xotin o'rtasidagi shartnoma, bitim

der Ehering – nikoh uzugi

die Ehescheidung – er-xotin ajralishi

der Ehestifter – sovchi, quda

die Ehestifterin – sovchi xotin, quda xotin

Die Ehe wird auf dem Standesamt registriert. – Nikoh ZAGS (fuqarolik holati aktlarini qayd qilish bo'limi)da qayd etiladi.

die Eltern *pl.* – ota-ona

von guten Eltern stammen- yaxshi oiladan chiqmoq

die Elternversammlung – ota-onalar yig'ilishi

der Elternbeirat – ota-onalar bilan
ishlash kengashi
elternlos – ota-onasiz

der Elternteil – ota-onalardan biri
die beiden Elternteile – ota-onalar-
dan
har ikkalasi

Einen Gruß an Ihre Eltern. – Ota-onangga salom ayt.



der Vater -s, Väter – ota

der Stiefvater – o'gay ota
der außereheliche Vater – nikohsiz
tug'ilgan bolaning otasi
der Heilige Vater – muqaddas ota
der leibliche Vater – chin ota
der Vater der Stadt – shahar
oqsoqoli
das Vaterland – ona-Vatan
vaterländisch – vatanga oid

die Vaterlandsliebe – vatanga mu-
habbat, vatanparvarlik
vaterlandslos – vatansiz, vatangado
der Vatersname – otasining ismi
der Vatersbruder – amaki (otaning
akasi yoki ukasi)
die Vaterschwester – amma (ota-
ning opasi yoki singlisi)

Seine Tätigkeit zeugt von seiner heißen Liebe zur Heimat. – Uning
faoliyati Vatanga qizg'in muhabbatidan dalolat beradi.

die Mutter -, Mütter – ona

die alleinstehende Mutter – yolg'iz
ona
die kinderreiche Mutter – ko'p
bolali ona
die Mutter Gottes – bibi Maryam
der Muttersbruder – tog'a (otaning
ukasi yoki akasi)
die Muttersschwester – xola (ona-
ning singilisi yoki opasi)

die Mutterherrschaft – ayollar
hukmronligi
die Muttermilch – ona suti
der Muttersname – onaning ismi
die Muttersmutter – onaning onasi,
buvi
der Muttersvater – onaning otasi,
buva

Seinen Muttersname habe ich für mein ganzes Leben behalten. –
Uning onasining ismini bir umrga eslab qolaman.

der Sohn -(e)s, Söhne – o'g'il

der leibliche Sohn – asl (haqiqiy) o'g'il

der Stiefsohn – o'gay o'g'il

der verlorene Sohn – noqobil o'g'il, oqqadar

der Sohn der Hölle – alvasti, iblis, shayton

die Söhnerin – kelin (o'g'ilning xotini)

die Sohnliebe – o'g'ilning muhabati

der Adoptivsohn – asrandi o'g'il



Der Sohn half dem Vater bei der Arbeit. – O'g'il otasiga ishda yordam berdi.

die Tochter -, Töchter – qiz

die leibliche Tochter – asl (haqiqiy) qiz

die Stieftochter – o'gay qiz

das Tochterkind – nabira

die Tochterliebe – qizning muhabati

der Tochtermann – kuyov (qizning eri)

die Adoptivtochter – asrandi qiz

Der Mutter war klar, was die Tochter sagen wollte. – Qizning nima demoqchi ekanligi onasiga tushunarli edi.

der Bruder -s, Brüder – aka yoki uka

der leibliche Bruder – chin aka yoki uka

Bruder Hitzig – o'ktam odam

Bruder Leichtfuß – yengiltak odam

Bruder Liederlich – isqirt odam

Bruder Lustig – hazilkash, ulfat odam

der Brudersohn – o'g'il jiyani

die Brudertochter – qiz jiyani

die Bruderlichkeit – birodarlik

die Brudersfrau – yanga yoki kelin (aka yoki ukaning xotini)

Mein Bruder hat keine Vorstellung davon. – Mening akam bu haqda tasavvurga ega emas.

die Schwester -, -n – opa-singil

das Schwesterkind – jiyān
der Schwestermann – pochcha
yoki kuyov (opa yoki singilning eri)

der Schwestersohn – o'g'il jiyān
die Schwestertochter – qiz jiyān

Viktor hat vor kurzem meine Schwester verheiratet. – Viktor yaqinda mening singlimga uylandi.



der Großvater -s, Großväter – buva, bobo

großväterlich – ota-bobolardan qolgan, qadimgi
die Großvatermütze – do'ppi, kal-lapo'sh

der Großvaterstuhl – qulay kreslo
die Großväterzeit – qadim zamonlar
seit Großväterzeiten – allaqochon-lardan beri, azaldan

Der Enkel hat die Aufnahme seines Großvaters vergrößert. – Nabira buvasining suratini kattalashtirdi.

die Großmutter -, Großmütter – buvi, momo

großmütterlich – buviga tegishli, buviniki

Seine Großmutter ist an einer schweren Krankheit gestorben. – Uning buvisi og'ir xastalikdan vafot etdi.

der Enkel -s, - – nabira

der Enkel – o'g'il nabira
die Enkelin – qiz nabira
die Enkelwelt – bola-chaqa, nasl

der Enkelsohn – nabiraning o'g'li, evara o'g'il
die Enkeltochter – nabiraning qizi, evara qiz

Die Großmutter hat ihren Enkel für das Kostümfest als Schornsteinfeger verkleidet. – Buvi nabirasini maskaradga mo'ri tozalovchi qilib ki-yintirdi.

der Onkel -s, - – amaki, tog'a

über den Onkel laufen – maymoq-
lanib yurmoq

onkelhaft – mehribon, oqko'ngil
das Onkelchen – amakijon, tog'ajon



Der Onkel schüttelte ihm die Hand. – Amaki uning qo'lini silkitdi.

die Tante -, -n – amma, xola

das Tantchen – ammajon, xolajon

Sie rückte von ihrer Tante ab. – U xolasining yonidan jildi.

5) die Kleidung -, - – kiyim-kechak

die Strickkleidung – yumshoq mato-
dan tikilgan kiyim

das Frauenkleid – ayollar kiyimi

das Gesellschaftskleid – kecha
(bazm) libosi

das Tanzkleid – raqs ko'ylagi

das Tageskleid – kunlik kiyim

das Hauskleid – uy ko'ylagi

das Umstandskleid – homiladorlik
ko'ylagi

das Nationalkleid – milliy ko'ylak

Haben Sie die neuesten Modelle des Frauenkleids? – Sizda ayollar
ko'ylagining yangi modasi bormi?



a) die Kinderkleidung – bolalar kiyimi

der Schlafanzug – pjama (kurtka va
shimdan iborat kiyim)

der Schneeanzug – kombinezon
(shimi bilan ko'ylagi qo'shib
tikilgan kiyim)

der Spielanzug – kichik kombinezon
das Lätzchen – oshxo'rak (bolalar
ko'kragiga taqiladigan fartukcha)

die Babyhandschuhe – boshbal-
doqli qo'lqop

die Babyschuhe – boshmoqcha (hali
yura olmaydigan bolalar yumshoq
oyoq kiyimi)

die Stoffwindel – paxmoq taglik
(chaqoloq tagiga solinadigan latta)

die Wegwerfwindel – bir martali
taglik

das Gummihöschen – nam tortmay-
digan taglik

der Sonnenhut – panamka (serbar
soyabonli yozlik bosh kiyim)

die Schürze – fartuk
die Kapuze – kapyushon (ustki kiyim yoqasiga birlashtirib tikilgan qaytarma qalpoq)

die Jeans – jinsi shim
der Schal – bo‘yinbog‘
der Anorak – kurtka, kalta kamzul

Die Jeans hängt im Kleiderschrank. – Jinsi shim kiyimlar shkafida osig‘liq turibdi.



b) die Herrenkleidung – erkaklar kiyimi

das Sportjackett – sport kostyumi (shimsiz)
die Weste – nimcha
das Sweatshirt – sviter
der Pullover – pullover (qomatga yopishib turadigan yoqasiz, tugmasiz kiyim)
der Schlafanzug – pjama (kurtka va shimdan iborat uy kiyimi)

das Unterhemd – mayka
die Shorts – shorti (trusiksimon kalta shim)
der Slip – plavki (suzganda kiyiladigan kalta, tor trusik)
die Boxershorts – trusik, kalta ishton
die Socke – paypoq

Ich habe mir einen Pullover über das Hemd gezogen. – Men sviterni ko‘ylagim ustidan kiyib oldim.

c) die Damenkleidung – xotin-qizlar kiyimi

die Jacke – ayollar jaketi, nimcha, kamzul
der Rock – yubka
der Saum – etak, bar
das Abendkleid – kechki ko‘ylak
die Bluse – bluzka (yengil matodan tikilgan kofta)
die Hose – shim
das Neglige – penyuar (ayollarning uyqudan turganda kiyib oladigan yengil yaktabichim ko‘ylagi)

der Unterrock – kombinasiya (xotin-qizlarning ichki ko‘ylagi, ich ko‘ylak)
das Mieder – gratsiya (xotin-qizlarning gavdasini siqib turadigan ichki kiyimi)
der Strumpf – chulki, paypoq
die Strumpfhose – kolgotka (xotin-qizlar kiyadigan triko-paypoq)
das Unterhemd – mayka



der Büstenhalter – byustgalter
(ayollarning ko'krakbog'i)
das Nachthemd – tunggi ko'yilak

der Schleier – fata (ayollarning nafis yopinchig'i) nafis, shaffof to'ra ro'mol

Die Jungfrau fiel durch ihren Schleier auf. – Qiz o'zining nafis ko'yilagi bilan ko'zga tashlanib turardi.

d) die Accessoires – aksessuarlar, ayrim jihozlar

der Hut – shlapa
das Halstuch – galstuk, bo'yinbog'
der Gürtel – kamar
das Taschentuch – dastro'mol
die Fliege – kapalaknusxa galstuk

die Krawattennadel – galstuk to'g'nog'ichi
die Handschuhe – qo'lqop
der Regenschirm – yomg'irpo'sh, zontik
der Schlips – galstuk

Binden Sie mir den Schlips. – Menga galstukni bog'lab bering.

e) der Schmuck -(e)s, – zeb-ziynat, pardoz-andoz

der Anhänger – kulon (bo'yinga taqiladigan zanjirli asl tosh, ziynat buyumi)
die Brosche – broshka, to'g'nag'ich
das Armband – bilaguzuk
die Kette – zanjircha, nozik zanjir
der Manschettenkopf – zaponka, iltatugma
der Ohrring – sirg'a, halqa
der Ring – uzuk

die Halskette – marjon, shoda
die Perlenkette – bir shoda inju, inju marjon
der Stock – tayoqcha, ingichka has-sa
die Uhrkette – soat zanjiri
der Klipp – qisqich
der Schmuckkasten – zeb-ziynat, pardoz-andoz uchun g'ilof

Er hat den goldenen Ring von der Mutter geerbt. – Bu oltin uzuk unga onasidan meros bo'lib qolgan.

f) das Make-up [me:k'ap] - – kosmetika, pardoz-andoz

der Augenbraunstift – qosh qalam **das Brauenbürsten** – qosh cho'tkasi

die Pinzette – pinset, qisqich, mo‘y-chinak

das Lipploss – lab yaltiroq loki

der Lippenpinsel – lab bo‘yoq cho‘tkasi

der Lippenkonturenstift – lab qalam

der Puderpinsel – yuz parvarish cho‘tkasi

der Korrekturstift – lab chetiga qo‘yiladigan lab bo‘yog‘i

die Puderdose – upa qutisi, upadon



Machen Sie mir bitte ein Make-up! – Marhamat meni pardoz-andoz qilib qo‘ying.

g) die Maniküre -, -n – manikyur

die Nagelfeile – egovcha, tirnoq-egovlagich

der Nagellak – tirnoq bo‘yog‘i (lak)

die Nagelschere – tirnoqqaychi

der Nagelknipser – o‘tkir jag‘li ombir

Bitte, Maniküre! – Marhamat, meni manikyur qilib qo‘ying!

der Mantel -s, Mäntel – palto

das Mäntelchen – kichkina palto

das Mantelfutter – palto astari

der Mantelkragen – palto yoqasi

der Kragenmantel – yoqali palto

der Mantelstoff – palto uchun material

die Manteltasche – palto cho‘ntagi

das Manteltuch – movut

der Regenmantel – plashch

Bitte helfen Sie dem alten Mann, den Mantel ausziehen. – Iltimos, qariyaga paltosini yechishiga yordamlashing.

die Jacke -, -n – kurtka

das Jackenkleid – xotin-qizlar kostyumi

das Jackett – pidjak, kostyum

der Jackettanzug – erkaklar kostyumi

die Gürteljacke – kamarli kurtka

Wo kann ich den Jakettanzug anprobieren? – Men kostyumni qayerda kiyib ko‘rishim mumkin?

die Hose -, -n – shim

die flatternde Hose – keng shim

die glockige Hose – voronkasimon shim

das Hosensband – kamar

das Hosensbein – pochasi (shimning bir pochasi)

der Hosensboden – shimning orqasi

der Hosensmantel – kombinezon, korjoma

die Hosennaht – shim choki, tikilgan joyi

der Hosenschlitz – shimning kesik joyi, qiyiq joyi

die Hosentasche – shim cho‘ntagi

die Sporthose – triko, trinka

Bügeln Sie mir bitte diese Hose. – Iltimos, mening shu shimimga dazmol bosib bering.

das Hemd -(e)s, -en – erkaklar ko‘ylagi

die Hemdbluse – erkaklar ko‘ylagi

der Hemdeinsatz – manishka (ko‘ylakning qadalma ko‘krak qismi)

die Hemdhose – kombinezon (ayollar kiyimi)

der Hemdknopf – ko‘ylak tugmasi

die Hemdkrause – jabo (yoqaning chetidagi to‘r yoki matodan qilingan burma hoshiya)

der Hemdsärmel – ko‘ylak yengi

das Schlafhemd – tungi ko‘ylak

Sie hat heute ein schönes Kleid an. – U bugun chiroyli ko‘ylak kiyib olgan.

das Kleid -(e)s, -er – ayollar ko‘ylagi

der Kleidausschnitt – kesib olingan qirqim

das Kleidchen – ko‘ylakcha

die Kleiderablage – garderob (bir kishiga tegishli kiyim-kechak, ustbosh)

die Kleiderpuppe – maneken (kiyimlarni o‘lchab ko‘rish uchun gavda qolipi)

der Kleiderrock – sarafan (xotin-qizlarning yengil yengsiz kiyimi)

die Kleiderschürze – xotin-qizlar ko‘ylak-xalati

Die Frau entfernte einen Fleck aus dem Kleid. – Ayol ko'ylagidagi dog'ni ketkazdi.

der Rock -(e)s, Röcke – pidjak

der grüne Rock – ovchilar pidjagi
der schwarze Rock – qora syurtuk
(erkaklarning uzun belburama kam-
zuli)

das Rockfutter – kostyum astari
der Rockkragen – pidjak yoqasi

der Rockzipfel – pidjakning etagi,
bari

die Rocktasche – pidjak cho'ntagi
der Rockschoß – falda (frak, mundir
kabi erkaklar kiyimining orqa etagi)



Ich rate dir zu diesem Rock. – Men senga shu pidjakni tavsiya qilaman.

die Socke -, -n – paypoq

das Sockchen – paypoqcha
